



### KO'KTURK YOZUVINING AYRIM O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI SOME CHARACTERISTICS OF KOKTURK WRITING

Zarifov Akramjon Sherbobo o'g'li

Karabuk universiteti Turk tili va adabiyoti fakulteti magistranti

[akramjonzarifov5@gmail.com](mailto:akramjonzarifov5@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17932765>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada turkiy xalqlarning yozma madaniyatida muhim o'rin tutgan Ko'kturk (O'rxun-Enasoy) yozuvi tizimining ayrim fonetik, grafemik va morfologik xususiyatlari tahlil etiladi. Ko'kturk yozuvi VI–VIII asrlarda shakllangan bo'lib, u turkiy tillarning ilk milliy yozuv tizimi hisoblanadi. Maqolada yozuvdagi unli va undosh tovushlarning ifodalanish tamoyillari, unli va undosh harflarning ba'zi holatlarda tushirib qoldirilish sabablari hamda fonetik uyg'unlik qonuni asosida harflarning qo'llanishi yoritilgan. Shuningdek, O'rxun-Enasoy bitiklarining tarixiy ahamiyati, ularni dastlab qayd etgan Yevropa va rus tadqiqotchilari faoliyati ham tahlil qilinadi. Ko'kturk yozuvi qadimgi turkiy tilning fonetik, morfologik va leksik tizimini o'rganishda asosiy manba sifatida baholanadi.

**Kalit so'zlar:** Ko'kturk yozuvi, O'rxun-Enasoy bitiklari, qadimgi turkiy til, fonetik tizim, morfologik tuzilish, yozuv madaniyati.

**Annotation:** This article analyzes some phonetic, graphemic, and morphological features of the Köktürk (Orkhon-Enasoy) script, which holds a significant place in the written culture of Turkic peoples. The Köktürk script, formed in the 6th–8th centuries, is considered the first national writing system among Turkic languages. The paper discusses the principles of vowel and consonant representation, the reasons for vowel omission in certain cases, and the harmony-based structure of the alphabet. It also examines the historical importance of the Orkhon-Enasoy inscriptions and the role of early European and Russian researchers who studied them. The Köktürk script serves as a key source for studying the phonetic, morphological, and lexical systems of the Old Turkic language. The author concludes that this script symbolizes not only a linguistic system but also the cultural unity, national identity, and historical memory of the Turkic peoples.

**Keywords:** Köktürk script, Orkhon-Enasoy inscriptions, Old Turkic language, phonetic system, morphological structure, writing culture.

#### KIRISH.

Turkiy xalqlarning yozma madaniyati tarixida Ko'kturk (O'rxun-Enasoy) alifbosi alohida o'rin tutadi. Ushbu yozuv tizimi VI–VIII asrlarda shakllangan bo'lib, u turkiy xalqlar orasida paydo bo'lgan ilk milliy yozuv tizimi hisoblanadi. Ko'kturk alifbosi turkiy tillarning fonetik xususiyatlariga mos ravishda yaratilgan, undosh va unli tovushlarning uyg'unlik qonuniga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Mazkur yozuv tizimi, asosan, tosh bitiklarda, yodgorliklarda, keyinchalik esa ayrim metall, yog'och va teri buyumlarda uchraydi. Eng mashhur yozma yodgorliklar sifatida O'rxun daryosi bo'yidagi Kultegin, Bilga Xoqon va To'nyuquq bitiklari tilga olinadi. Ushbu yodgorliklar nafaqat turkiy xalqlarning siyosiy va ijtimoiy hayotini, balki ularning dunyoqarashi, til tizimi va yozuv madaniyatini ham yoritib beradi [Abdurahmonov, 1982. 166].



Ko'kturk alifbosi 38 belgidan iborat bo'lib, ulardan 4 tasi unli, 31 tasi undosh tovushlarni ifodalaydi, qolgan belgilar esa ayrim birikmalarni (masalan, nt, nch, lt) bildiradi. Unli tovushlar sonining kamligi turkiy tillardagi undoshlarning fonetik boyligi bilan muvozanatlashtirilgan. Shuningdek, bu yozuvda tovushlarning qalin va ingichkaligi, ba'zan esa yumaloqligi ham maxsus belgilar orqali farqlanadi.

Tadqiqotchilar Ko'kturk yozuvining kelib chiqishi haqida turlicha fikr bildirishgan. Ayrim manbalarda u qadimgi so'g'd yozuvi yoki pahlaviy yozuvi ta'sirida shakllangan deb qaralsa, boshqa tadqiqotchilar uni mustaqil turkiy yozuv tizimi sifatida baholaydilar. Har ikki yondashuv ham yozuv tizimining murakkab tarixiy va madaniy asoslarini ko'rsatadi. Bugungi kunda Ko'kturk alifbosi turkiy xalqlar madaniyatining qadimiy merosi sifatida o'rganilib, uning grafemik, fonetik va morfologik jihatlari turli ilmiy yo'nalishlarda tadqiq etilmoqda. Shuningdek, bu yozuv tizimi turkiy xalqlar birligi, milliy o'zlik va tarixiy xotiraning ramzi sifatida ham alohida ilmiy va ma'naviy ahamiyat kasb etadi [Aliyev A., Sodiqov Q., 1994. 118].

### ASOSIY QISM.

Ko'kturk yozuvida barcha unli tovushlar har doim ham ifodalanmaydi. Unlilar yozilmaydigan holatlar quyidagilardir:

a, e unlilari — so'z oxirida bo'lmaganda — odatda yozilmaydi. Bu holat shundan kelib chiqadiki, qattiq undoshlar ab-ba, ad-da, ag-ga, ak-ka, al-la, an-na, ar-ra, as-sa, at-ta, ay-ya tovushlarini; yumshoq undoshlar esa eb-be, ed-de, eg-ge, ek-ke, el-le, en-ne, er-re, es-se, et-te, ey-ye tovushlarini birgalikda bera olish xususiyatiga ega [Saadet, 1963. 54].

*ok, uk, ko, ku* tovushlarini bildiruvchi ↓ belgisi mavjud bo'lganda uning yonidagi unlilar yozilmaydi.

Ayrim belgilar shunday xususiyatga egaki, ular ikki tovushli a $\acute{g}$ , at, er, ag kabi ma'noli so'zlardan kelib chiqqan bo'lib, bu so'zlarning ifodalagan predmetlari (narsalari) tasvirlaridan shakllangan degan fikrni qo'llab-quvvatlaydi.

Dastlabki bo'g'indan keyingi bo'g'inlarda joylashgan *ı, i* unlilari odatda yozilmaydi. Ba'zan esa dastlabki bo'g'indagi *ı, i* unlilari ham yozilmaydi.

Ko'kturk yozuvida tinish belgisi sifatida faqat ikkita nuqtadan iborat belgi ishlatilgan bo'lib, bu ikki nuqta so'zlarni yoki so'z guruhlarini bir-biridan ajratadi.

Hozirgi tilimizda mavjud bo'lgan *f, g, h, j, v* tovushlari Ko'kturk tilida mavjud emas. Buning evaziga, hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lgan *ng* tovushi Ko'kturk tilida mavjud.

Demak, Ko'kturk tilida 8 ta unli tovush (ba'zi tadqiqotchilarga ko'ra, yopiq e unlisi bilan birga 9 ta) va 19 ta undosh tovush bo'lgan.



Ko'kturk tilining unli tovushlari: a, e, ı, i, o, ö, u, ü.

Ko'kturk tilining undosh tovushlari: b, ch, d, g, g', k, l, m, n, ng, p, r, s, sh, t, y,

z.

Barcha unlilar so'zning istalgan qismida — boshida, o'rtasida va oxirida — ishlatilishi mumkin. Undosh tovushlar ham so'z o'rtasida yoki oxirida kelishi mumkin, biroq ayrim undoshlar so'z boshida ishlatilmaydi [Clauson, 1962. 112].

So'z boshida kela oladigan undosh tovushlar quyidagilardir:

b-: bar (bor), bish, bich-, bilig, boz, böri.

ch-: chabış (bosh qo'mondon), chigan (kambag'al), chol (cho'l).

k-: kentü (o'zi), kishi, kör- (ko'rmoq), küch (kuch).

k-: kagan, kırk, kor-, kul.

s-: sach, sen, sıgıt, süz, sözlesh-, sub, sür-.

t-: tash, ter, tıñla- (tinglamoq), tirig (tirik), tok, tört, tut-, Türk.

y-: yağız, yılme (oldingi, yetakchi), yıl, yer (yer), yok, yurt, yüz.

Bundan tashqari, *d, g, g', l, m, n, p, r, s, sh* kabi undosh tovushlar so'z boshida kelmaydi. Quyidagi misollar bu qoida uchun istisno hisoblanadi.

Ko'kturk yozuvi, asosan, O'rxun va Enasoy daryolari havzasidan topilgan tosh bitiklar orqali bizgacha yetib kelgan. Ularning eng mashhurlari Bilga Ko'kturk, Kultegin va To'nyuquq yodgorliklaridir. Ushbu bitiklarda davlat boshqaruvi, xalq va hukmdor munosabatlari, urush va tinchlik, sadoqat va g'urur singari ijtimoiy-falsafiy tushunchalar ifodasini topgan [Saadet, 1963. 54]. Bu yodgorliklar nafaqat tarixiy hujjat, balki tilshunoslik, falsafa va madaniyat tarixi uchun ham bebaho manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Ko'kturk yozma yodgorliklari haqida ilk ma'lumotlar o'rta asrlardayoq ayrim tarixchilar tomonidan qayd etilgan. XIII asrda yashagan mashhur tarixchi Alauddin Ata Malik Juvayniy o'zining "Tarixi Jahongo'sha" asarida Ko'kturk bitiklarini ko'rganini yozadi. U bir Uyg'ur afsonasiga tayanib, O'rxun daryosining sohilida joylashgan qadimiy tosh yozuvlar haqida so'z yuritadi. Juvayniy bu joyni "Karakorum" deb ataydi va u yerdagi qadimiy yozuvli qoyalarni tasvirlab, ularni turklar yaratganini ta'kidlaydi.

XV asrda yashagan arab olimi Ibn Arabshoh ham Ko'kturk yozuvi haqida ma'lumot beradi. U o'zining "Ajoib al-maqdur fi navodir at-Taymur" asarida bu yozuvni "turklarning dulberchin deb ataluvchi yozuvi" deb tilga oladi. U ko'plab belgilar qalin va ingichka talaffuzga ega ekanini qayd etib, bu yozuvda unli tovushlar maxsus belgilar orqali ifodalanmasligini ta'kidlaydi. Shu bois, so'zlarning ma'nosini aniqlashda kontekst muhim rol o'ynagan [Qoshg'ariy, 1963. 243]. Yevropada Ko'kturk yozma yodgorliklariga oid ilk ilmiy ma'lumotlar XVII asr oxirlariga borib



taqaladi. Birinchi bo‘lib Yenisey yozuvlari haqida ma‘lumot bergan shaxs — Rim (Romen) sayyohi va sharqshunosi Nikolay Gavrilovich Milesku bo‘lgan. U 1675-yilda Xitoyga diplomatik elchi sifatida yo‘l olganida, Yenisey daryosi bo‘ylarida g‘alati belgilar bilan yozilgan tosh bitiklarni ko‘radi. Milesku bu yozuvlarni qadimiy va “turkiy xalqlarga tegishli bir yozuv turi” deb hisoblagan. Ikkinchi bo‘lib Yenisey yozuvlarini tilga olgan olim esa Gollandiya (Amsterdam) shahar rahbari Nikolaas Witsen bo‘lgan. U uzoq yillar Rossiya va Sibir bo‘ylab sayohat qilgan, 1692-yilda nashr ettirgan “Noord en Oost Tartarije” (“Shimoliy va Sharqiy Tatariston”) nomli asarida Sibirda uchragan tosh bitiklar haqida batafsil ma‘lumot bergan. Witsen o‘z asarida Tobol va Tura daryolari atrofidagi qoyatoshlarda g‘alati belgilarni ko‘rganini yozadi. U bu belgilarni qadimiy xalq yozuvi deb baholagan, biroq ularning aniq tahlilini bera olmagan.

XVIII asrning boshlariga kelib, rus olimlari va Yevropadan kelgan tadqiqotchilar bu yozuvlarni tizimli tarzda o‘rganishga kirishadilar. 1721-yilda Daniya asilli olim Daniel Gottlieb Messerschmidt Yenisey daryosi havzasida ilmiy ekspeditsiya olib boradi [Abdurahmonov, 1982. 166]. U Rossiya imperatori I Pyotr topshirig‘i bilan Sibirda tabiiy boyliklar, qadimiy yodgorliklar va mahalliy xalqlar hayotini o‘rganish maqsadida sayohat qilgan. Messerschmidt Yenisey bo‘ylarida joylashgan Uyat (hozirgi Uibat) daryosi atrofida tosh yozuvlarni topgan va ularni batafsil tasvirlab yozib qoldirgan. U bilan birga ishlagan shved asilli olim Yohann Filipp Tabbert (von Strahlenberg) ham bu yodgorliklar haqida o‘z qaydlarini olib borgan. 1722-yilning yanvar oyida u Kazak qishlog‘idan odam bo‘yidagi tosh haykal topilgani haqida xabar oladi. Strahlenberg bu topilmani o‘rganib, undagi yozuvlarni “Yenisey-Tes bitiklari” sifatida qayd etgan. Bu yozuvlar keyinchalik Yenisey yozuvlari deb atalgan ilk namunalar sirasiga kiradi.

Strahlenberg 1722-yilda vatani Shvetsiyaga qaytadi, biroq u yig‘gan ma‘lumotlar 1730-yilda “Das Nord und Östliche Teil von Europa und Asia” (“Yevropa va Osiyoning shimoliy va sharqiy qismi”) nomli asarda chop etiladi. Unda Yenisey bo‘ylarida topilgan tosh yozuvlarning chizmalari va ayrim belgilarining ko‘chirmalari berilgan [Aliyev A., Sodiqov Q., 1994. 118]. Bu asar Ko‘kturk yozma yodgorliklari haqida Yevropada chop etilgan dastlabki ilmiy manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, Ko‘kturk yozuvlarining ilmiy jihatdan o‘rganilishi XVII–XVIII asrlar davomida Yevropa va Rossiya olimlarining qizg‘in izlanishlari natijasida boshlangan. Milesku, Witsen, Messerschmidt va Strahlenberg singari tadqiqotchilar bu yozuvlarni birinchi bo‘lib ilmiy muomalaga kiritgan shaxslar bo‘lib, ularning ishlari keyingi turkologik tadqiqotlar uchun poydevor vazifasini bajargan.



### XULOSA.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan O'rxun–Enasoy matnlari qadimgi turkiy tilning grammatik tuzilishini, leksik boyligini, morfologik tizimini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi. Bu bitiklarda agglutinativ tuzilishning barqarorligi, affikslarning tartibli qo'llanilishi va so'z yasash tizimi bugungi zamonaviy turkiy tillar bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatadi. Bu yozuv orqali turkiy tillarning qadimiy fonetik tizimi, urg'u va intonatsiya xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar olingan. Ko'kturk yozuvlari morfemalarning semantik yukini aniq ifoda etganligi sababli, u zamonaviy turkiy tillarning genetik ildizlarini o'rganishda lingvistik asos sifatida foydalaniladi. Bundan tashqari, Ko'kturk yozuvi orqali qadimgi turkiy xalqning dunyoqarashi, diniy e'tiqodlari va ijtimoiy qadriyatlarini haqida ham muhim ma'lumotlar olinadi. Bitiklarda "Tengri", "Yer-Suv", "El", "Qut" kabi so'zlarning ishlatilishi qadimgi turkiylarning diniy-falsafiy tafakkur darajasini yoritib beradi. Bu atamalar keyinchalik O'rta Osiyo, Sibir va Sharqiy Yevropa hududlarida shakllangan ko'plab turkiy tillarda ham o'z aksini topgan. Bugungi kunda Ko'kturk alifbosi nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida, balki turkiy xalqlarning madaniy birligi va o'zligini ifoda etuvchi timsol sifatida ham o'rganilmoqda. Ko'plab turkologik markazlar, jumladan O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Vengriya va Rossiyadagi ilmiy muassasalar bu yozuv tizimini raqamli shaklda o'rganish, transliteratsiya va fonetik tahlilini amalga oshirish bilan shug'ullanmoqda. Ko'kturk yozuvidan foydalanish asosida yangi o'quv dasturlari, interaktiv darsliklar va mobil ilovalar yaratilmoqda. Shuningdek, Ko'kturk yozuvining semiotik tahlili ham muhim ilmiy yo'nalishga aylangan. Har bir belgining grafik shakli, chizilish yo'nalishi, estetik kompozitsiyasi orqali qadimgi turkiylarning badiiy tafakkuri, tabiatni idrok etish uslubi va simvolik ifoda imkoniyatlari aniqlanmoqda. U faqat yozma aloqa vositasi emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, siyosiy ongining ifodasidir. O'rxun–Enasoy bitiklarida "Elini yo'qotgan xalq, tili bilan o'zini saqlaydi" degan mazmundagi fikrlar uchraydi. Bu esa til va yozuvning xalq hayotidagi o'rmini chuqur anglaganlikni ko'rsatadi. Shu boisdan, Ko'kturk alifbosi nafaqat lingvistik tizim, balki mustaqil sivilizatsion hodisa sifatida baholanishi lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonov A., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. O'qituvchi, 1982. –166 b.
2. Aliyev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. O'zbekiston, 1994. -118 b.
3. Chag'atay, Saadet, Turk shevalaridan namunalar I, Anqara 1963. Çağatay 1963.
4. Clauson, Sir Gerard, Turk va Mongol tadqiqotlari, London 1962. Clauson 1962.
5. Mahmud Qoshg'ariy. Devon-i lug'otit turk. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. T. I-III. -T: Fan, 1960-1963.